



SHARH NUTQIY JANRINING GENRISTIK BELGILARI: MEDIA PARAMETRLARI YUZASIDAN TAHLILIY YONDASHUV

Ismoilova Odinaxon A'zamjon qizi,

Andijon davlat universiteti.

Tayanch doktorant

ismoilovaodinaxon5@gmail.com

99-375-46-05

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATSIYA

Qabul qilindi: 6-oktabr 2025-yil

Tasdiqlandi: 8-oktabr 2025-yil

Jurnal soni: 16

Maqola raqami: 27

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v16i.1264>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

Sharh nutqiy janri, kompyuter vositachiligidagi aloqa janr modeli, janr xususiyatlari, interfeys, interaktivlik, gipermatnlilik, multimedia, sinxronlik/asinxroniya, kommunikatorlar soni, pragmatik parametrlar, jo'natuvchi va qabul qiluvchining turi, xronotop xususiyatlar, stilistik va lingvistik parametrlar, heterojenlik.

Mazkur maqolada internet nutqining janr xususiyatlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil etiladi. Tadqiqotda rus va xorijiy olimlarning internet diskursi, xususan, sharh janri bo'yicha olib borgan izlanishlari ko'rib chiqiladi. Sharh janrining virtual matbuotda alohida o'rin tutishi, uning an'anaviy matbuotdan farqlari, interaktivlik, interfeys, gipermatnlilik kabi media parametrlar asosida tahlil qilinadi. L.Yu.Shipitsina tomonidan taklif etilgan kompyuter vositachiligidagi aloqa janr modeli asosida internet kommentariyalarining pragmatik, struktur-semantik, stilistik-lingvistik xususiyatlari aniqlanadi. TUT.by axborot portalidagi faktik materiallar asosida sharh janrining gibrid va mustaqil shakllari o'rganiladi. Internet sharhlari zamonaviy media janrining murakkab, ko'p qatlamli shakli sifatida baholanib, axborot almashinuvi va jamiyatdagi faolligni oshirishdagi roli ta'kidlanadi.

Kirish. Zamonaviy kommunikatsiya vositalarining jadal rivojlanishi natijasida insonlar o'rtasidagi muloqot shakllari tubdan o'zgarib bormoqda. Ayniqsa, internet tarmog'i orqali yuzaga kelayotgan nutqiy faoliyat turlari tilshunoslikda alohida tadqiqot obyekti sifatida qaralmoqda. Virtual muhitda shakllanayotgan nutq janrlari, xususan, internet kommentariyalari, o'ziga xos kommunikativ, stilistik va semantik xususiyatlarga ega bo'lib, an'anaviy nutq janrlaridan sezilarli darajada farqlanadi. Bu esa ularni alohida ilmiy tahlil qilish zaruratini tug'diradi.

Mazkur maqolada internet kommentariya janrining genristik xususiyatlari, uning media parametrlari, stilistik-lingvistik ko'rinishlari hamda interaktivlik va gipermatnlilik kabi muhim jihatlari tahlil etiladi. Tadqiqotda rus va xorijiy tilshunos olimlarning izlanishlariga tayangan holda, internet sharhlarining mustaqil nutqiy janr sifatidagi o'rnini aniqlanadi. Shuningdek, zamonaviy axborot platformalarida (masalan, TUT.by, Telegram, YouTube) izohlar orqali yuzaga kelayotgan muloqot shakllari lingvistik jihatdan o'rganiladi. Maqola internet nutqining murakkab va ko'p qatlamli tabiatini yoritishga, uning janr tasnifi va lingvistik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. So'nggi yillarda tilshunoslik sohasida yaratilayotgan tadqiqotlar e'tiborini internet nutqiga, xususan uning janr xususiyatlariga qaratmoqda. O.V.Lutovinova, N.A.Axrenova, E.I. Goroshko, E.Y.Raspopina, I.V. Rogozina kabi bir qator rus tadqiqotchilari ushbu muammoga bag'ishlangan ilmiy izlanish olib borgan bo'lsalar, D.Kristal, J.Anis, M.Markokia, S.K.Herring kabi xorijiy tilshunos olimlari ham internet janrshunosligi muammolari yuzasidan ish olib bormoqdalar¹. Bundan tashqari jahon tilshunosligida K. A. Barsht, V. I. Karasik, M. V. Moiseev, I. A. Ushanova, M. A. Yegorova, S. V. Ivanova, V. M. Zubareva, V. A.

Mityagina² kabi olimlar internet komentariyalari tadqiq etilgan maqolalarini e'lon qilganlar. Yuqorida ism-shariflari keltirilgan olimlar internet diskursi masalasida samarali izlanishlar olib borayotganlari diqqatga sazovor. Bu, albatta, nutqiy janrlar tadqiqiga oid yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. L.R.Abdullina va uning hammualliflari nutqiy janrlar tizimida sharh janri alohida e'tiborga loyiq ekanligini ta'kidlaydilar. Tadqiqotchilar virtual matbuot va an'anaviy matbuot o'rtasidagi asosiy farq qabul qiluvchi va jo'natuvchining bevosita aloqasida va sharh janrining o'zgartirilgan shaklida ekani haqida to'xtalib, T.V.Sinenkoning nuqtayi nazarini asosli deb hisoblaydilar. Muallifning ta'kidlashicha, "tarmoq texnologiyalari eng qisqa vaqt ichida mutaxassislardan ham, oddiy o'quvchilardan ham deyarli cheksiz miqdordagi sharhlarni olish imkonini beradi"³; "Bu ma'lumot beruvchiga o'quvchilar ongiga ta'sir darajasini baholash, qo'yilgan maqsadlar muvaffaqiyatini aniqlash va hatto ochib berish imkoniyatini beradi"⁴. Aksariyat olimlar internet komentariyalarini o'ziga tegishli bo'lgan post bilan birgalikda o'rganish g'oyasini ilgari surishlariga qaramay, Voronej davlat universiteti tilshunos olimi M. A. Egorova bu fikrni qo'llab-quvvatlamaydi, uning fikricha: "javobni postning bir qismi sifatida emas, balki kompyuter vositachiligidagi aloqaning mustaqil janri sifatida ko'rib chiqishni o'rinli deb hisoblaymiz. Bu qaror, xususan, postlarning janr xilma-xilligiga qaramay, ularga berilgan javoblar umumiy janr yaratuvchi xususiyatlarga ega ekanligi bilan izohlanadi. Shuni ham hisobga olish kerakki, xabar jo'natuvchi va javob jo'natuvchining rollari va maqomlari ko'pincha sezilarli darajada farq qiladi, bu haqda quyida batafsilroq muhokama qilinadi"⁵.

Rus tilshunosi Ye.N.Vasilenko internet sharhining janr xususiyatlarini tadqiq etishga bag'ishlangan maqolasida yana bir tadqiqotchi olimi L.Yu.Shipitsina tomonidan taklif qilingan kompyuter vositachiligidagi aloqa janr modeliga asoslanib, janrning ommaviy

¹L. R. Abdullina, A. V. Ageeva and E. A. Smirnova The Evolution of the "Comment" Genre: Theoretical Aspect. World Applied Sciences Journal 29 (3): 354-367, 2014. [https://www.idosi.org/wasj29\(3\)14/7.pdf](https://www.idosi.org/wasj29(3)14/7.pdf). (Murojaatsanasi: 12.02.2025).

²Баршт К. А. О направлениях и пределах комментирования художественного текста. По поводу статьи К. Г. Исупова // Вопросы литературы. 2009. № 5. С. 279-303; Карасик В. И. Комментарий как жанр герменевтического дискурса // Язык, коммуникация и социальная среда. 2009. Вып. 7. С. 32-47; Моисеев М. В. Проблема типологии и точности комментария к переводу художественного текста // Вестник Омского государственного университета. 2014. № 3 (73). С. 132-135; Ушанова И. А. Комментарии читателей в новых медиа как форма Интернет-коммуникации // Язык и межкультурная коммуникация: материалы Второй Международной науч. практ. конф. (Великий Новгород, 19-20 мая 2011 г.): в 2 т. Т. 2. / отв. ред. О. А. Александрова, Е. Ф. Жукова. Великий Новгород: НовГУ им. Ярослава Мудрого, 2011. С. 105-109; Егорова М. А. Отклики и оценочные комментарии при компьютерно-опосредованной коммуникации // Вестник Воро

нежского государственного университета. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. №1. С. 15-20; Иванова С. В., Зубарева В. М. Жанровые особенности комментария как интернет-текста // Вестник Башкирского университета. 2013. Т. 18. №4. С. 1147-1151; Митягина В. А. Интернет-комментарий как коммуникативное действие // Жанры и типы текста в научном и междисциплинарном дискурсе: межвуз. сб. науч. тр. Вып. 10. Орен.: ОГИИК, ООО «Горизонт», 2012. С. 188-197.

³ Sinenko, T.V., 2008. The genre peculiarities of network debates. Bulletin of the Voronezh state university. Series: Philology. Journalism, 1: 214-222.

⁴L. R. Abdullina, A. V. Ageeva and E. A. Smirnova. Ko'rsatilgan manba.

⁵ М. А. Егорова "Отклики и оценочные комментарии при компьютерно-опосредованной коммуникации". Вестник ВГУ. серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. № 1. С.15-20.

axborot vositalari, pragmatik, struktur-semantik va stilistik-lingvistik xususiyatlarini ko'rib chiqadi. Internet sharhining janr xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Sharh janrining mustaqilligi va uni interfaol yangiliklar maqolasining gibril janrining tarkibiy qismi sifatida o'rganish zarurligi to'g'risida xulosa chiqariladi. Belorussiyaning mashhur TUT.by axborot portalida chop etilgan yangiliklar maqolalariga sharhlar faktik material sifatida ishlatilgan⁶. Internet nutqi hodisasining murakkabligi va ko'pqirraliligi uning janr tasnifiga juda ko'p yondashuvlar mavjudligini belgilaydi (Qarang: N.G.Asmus, E.N.Galichkina, E.I.Goroshko, E. A.Jigalina, L.Yu.Ivanov, L.Yu.Shchipitsina, D. va boshqalar). Ushbu mavzuga bag'ishlangan ko'plab asarlarning mavjudligi virtual janrlarni o'rganish janrlari nazariyasida yangi yo'nalishning paydo bo'lishi haqida gapirishga imkon beradi, uning vazifalari "virtual yoki internet janrlarining barcha turlarini tavsiflash va tuzish va ularni tasniflash usullarini" o'z ichiga oladi⁷.

Xulosa qilib aytganda, internet kommentariyalari zamonaviy nutqiy janr sifatida tilshunoslikda alohida ilmiy e'tiborni talab qilmoqda. Ular virtual muloqot muhitida shakllanib, interfeys, interaktivlik, gipermatnlik kabi media parametrlar orqali o'ziga xos kommunikativ xususiyatlarga ega bo'ladi. Sharh janrining mustaqilligi, uning gibril shakllar bilan aloqasi va stilistik-lingvistik jihatlari zamonaviy axborot platformalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Tadqiqot davomida deskriptiv (tasviri) va lingvistik-analitik tahlil usullaridan foydalanilib, internet nutqining murakkab tuzilmasi va janr tasnifi chuqur o'rganildi.

Natijalar. Tahlil qilingan internet kommentariyalari kompyuter vositachiligidagi aloqa janrining zamonaviy tilshunoslikdagi ko'p qirrali va funksional xususiyatlarini namoyon etdi. Sharh nutqiy janri asosiy parametrlaridan biri sanalgan media parametrlari asosida o'zining mustaqil va gibril shakldagi janr sifatida shakllanganini ko'rsatdi. Olib borilgan tadqiqot internet kommentariyalari zamonaviy nutqiy janr sifatida shakllanib, o'ziga xos genristik va media parametrlar asosida tahlil qilinish zarurligini ko'rsatdi va quyidagi muhim natijalar aniqlandi:

1. Sharh janrining mustaqilligi: Internet kommentariyalari an'anaviy matbuotdagi izoh shakllaridan farqli ravishda, o'zining kommunikativ maqsadi, strukturaviy tuzilmasi va stilistik-lingvistik vositalari bilan ajralib turadi. Ular ko'pincha postlardan mustaqil holda mavjud bo'lib, alohida nutqiy birlik sifatida qaratiladi.

2. Media parametrlarining ta'siri: Interfeys, interaktivlik, gipermatnlik, multimedia, sinxronlik/asinxroniya kabi media xususiyatlar sharh janrining shakllanishi va rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Bu parametrlar foydalanuvchi tajribasini shakllantirishda va kommunikativ muhitni tashkil etishda muhim rol o'ynaydi.

3. Interaktivlikning kommunikativ funksiyasi: Kommentariyalor orqali foydalanuvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalaydi, boshqa foydalanuvchilar bilan muloqotga kirishadi, bahs-munozaralar olib boradi hamda emotsional munosabatlarini bildiradi. Bu holat internet kommentariyalari ijtimoiy muloqotning faol shakliga aylantiradi.

4. Gipermatnlikning matnlararo bog'lanishdagi roli: Kommentariyalarda havolalar, hashtaglar, mentionlar va multimedia elementlarining mavjudligi matnlararo bog'liqlikni kuchaytiradi. Bu esa foydalanuvchiga kengroq axborot maydonida harakat qilish imkonini yaratadi.

5. Janr modeli asosida tahlil: L.Yu. Shipitsina tomonidan taklif etilgan kompyuter vositachiligidagi aloqa janr modeli asosida olib borilgan tahlil internet kommentariyalarning pragmatik, struktur-semantik, stilistik-lingvistik va media parametrlar asosida chuqur o'rganilishini ta'minladi.

6. Amaliy misollar asosida tasdiqlash: TUT.by axborot portalidagi faktik materiallar asosida sharh janrining gibril va mustaqil shakllari o'rganildi. Bu esa nazariy yondashuvlarni amaliy misollar bilan

boyitdi va internet kommentariyalarning real kommunikativ muhitdagi funksional xususiyatlarini ochib berdi.

Muhokama. Internet komentariya janrini genristik xususiyatlarini aniqlash uchun L. Yu. Shipitsina tomonidan taklif qilingan va quyidagi parametrlarni o'z ichiga olgan kompyuter vositasidagi aloq janrlarining xususiyatlarini asos sifatida olamiz. Ular esa quyidagi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

- pragmatik (nima uchun? kim? kimniki? qachon?)
- media xususiyatlari (nima yordamida? qaysi kompyuter dasturi yordamida?);
- strukturaviy-semantik (nima? qanday tartibda?);
- stilistik-lingvistik (qanday qilib? qanday lingvistik vositalar yordamida?)⁸.

Taklif etilayotgan modelga muvofiq janrning **media** parametrlariga *interfeys, interaktivlik, gipermatnlik, multimedia, sinxronlik/asinxroniya, kommunikatorlar soni, pragmatik* parametrlariga *maqsad, jo'natuvchi va qabul qiluvchining turi*, shuningdek, *xronotop* xususiyatlari kirishi, **stilistik va lingvistik** parametrlari esa sharh nutqiy janri heterojen (turli xil tarkibiy qismli) ekanligi bois, kommunikatorlarning yoshiga, komentatorning bilim darajasidan kelib chiqqan holda o'zgarib turishi ta'kidlangan⁹. Shuningdek, internet komentariyalarning keltirilayotgan mazkur xususiyatlari ularning raqamli muhitda yaratilganligi sababi bilan izohlanadi.

Interfeys — bu tushunchaga turlicha ta'riflar mavjud bo'lib, asosiy vazifasi foydalanuvchi bilan texnologik tizim o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lib xizmat qilishdan iboratdir. U orqali foydalanuvchi tizim bilan kommunikatsiyaga kirishadi, ma'lumot kiritadi, oladi va boshqara oladi. Internet kommentariyalari kontekstida interfeys bu — foydalanuvchining izoh yozishi, o'qishi, baholashi va boshqa foydalanuvchilar bilan o'zaro aloqada bo'lishi uchun yaratilgan vizual va funksional muhitdir. Kommentariyalor veb-saytlar, bloglar, ijtimoiy tarmoqlar interfeysi orqali yoziladi. Bugungi globalashuv zamonida deyarli hamma qandaydir ish yuzasidan internetdan foydalanadi va yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir dastur, veb-sayt, messenger yoki ijtimoiy tarmoq o'z interfeysiga ega bo'lganligi bois unga duch kelishimiz tabiiy hol. Masalan, Telegram, Instagram, Facebook, YouTube kabi platformalarda foydalanuvchilar bilan muloqot qilish, fikr almashish yoki kontentga munosabat bildirish imkonini beruvchi izohlar oynasi ham o'ziga xos interfeys elementidir. Bu kabi izohlar oynalari foydalanuvchi tajribasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi hamda foydalanuvchilarning media savodxonligi darajasini oshiradi.

Interaktivlik xususiyati — bu tarmoqdagi foydalanuvchi va tizim o'rtasidagi ikki tomonlama aloqani anglatibgina qolmay, bu aloqaning eng faol shakllaridan biri hisoblangan internet komentariyalari orqali foydalanuvchilar ma'lum bir kontentga nisbatan o'z pozitsiyasini ifodalab, boshqa foydalanuvchilar bilan erkin muloqotga kirishadi: bahs-munozaralar olib boradi yoki kontekstga nisbatan "like", "dislike", "emoji" yoki "gif" lar orqali o'z emotsional munosabatini ifodalaydi, qisqa qilib aytganda shaxsiy reaksiyalarini ifoda etadi.

Izoh: Men yoshligimda aytib yuradigan qo'shig'im ekan ¹⁰

Savol: Ассалому алайкум шу докторни аниқ адреслари блрми илтимос сиздан раҳмат каттакон¹¹

Fikr-almashish: Ayni men foydalanishni sekin sekin boshlagan tarbiya usuli ekan. 4 yoshli o'g'limga qolmayman desa ko'p harakat qilsang qilolasan deb qildiraman, do'konga chiqsak o'g'lim faqat kerakli narsa olamiz, chunki bu bu narsaga pul yig'ishimiz kk deyman. Pulim bo'lsa oberaman deyman va oberaman. Nimaga xafasiz deydi aytaman qaysi muammoga o'ylanayotganimni va nima qilmoqchi ekanimni. Balog'at yoshiga yetar yetmas biror ishlarga ishlashini ham reja qilaman. Xullas men ham sizni hamma fikrizga qo'shilaman¹²

⁶ Е.Н. Василенко Комментарий в жанровом пространстве интернет-дискурса. <https://libr.msu.by/bitstream/123456789/11093/1/2328n.pdf>. Murojaat sanasi: 11.03.2025.

⁷ Горшкo, Е. И. Виртуальное жанроведение: устоявшееся и спорное / Е. И. Горшкo, Е. А. Жигалина // Вопросы психолингвистики. - 2010. - № 2 (12). - С. 105.

⁸ Щипицина, Л. Ю. Классификация жанров компьютерно-опосредованной коммуникации по их функциям / Л. Ю. Щипицина // Извест. Рос. гос. пед. ун-та имени А. И. Герцена. - 2009. - № 114. - С. 172.

⁹ Е. Н. Василенко. Yuqorida ko'rsatilgan manbaa. С 23.

¹⁰ <https://youtube.com/watch?v=KJ2a2Up1wRc&lc=Ugyx7FmbCXoxBckmEpZ4AaABAg&si=3ZgUEslLosHXFZG1>. Murojaat sanasi: 19.10.2025.

¹¹ <https://youtube.com/watch?v=Ty9GfWfXqKA&lc=UgwDqZFPpwEKfbKWH094AaABAg&si=hLQRVvtEXT0Hq3>. Murojaat sanasi: 19.10.2025.

¹² https://youtube.com/watch?v=ExfaMN911Gw&lc=UgzvUg1eP3TN_tEX8IV4AaABAg&si=VXkGfxg3ClcGRJqA. Murojaat sanasi: 19.10.2025.

Gipermatnlilik: Internet kommentariyalardagi gipermatnlilik — bu foydalanuvchi izohlarida havolalar, multimedia elementlari va boshqa matnlararo bog'lanishlar orqali interaktivlikni oshirish xususiyatidir. Bu, axborotning ko'p qatlamli va bog'langan shaklda taqdim etilishini anglatadi.

Gippermatnlilikning asosiy ko'rinishlari quyidagilardan iborat:

1. **Havola keltirish:** To'liq video RENESSANSTV-RTV YouTube kanalida - Odamiylik 9-son | Muhammadali Eshonqulov¹³

2. **Hashtag va mentionlar yordamida ijtimoiy tarmoqlardagi boshqa foydalanuvchilar yoki mavzular bog'lanadi.**

- [@IrodaAbdurahmanova-q4t](#) нима бўлганда ҳам икки киши қилган иш иккаласи ҳам айбдор. шошилманг барча артистларни миси чиқаяпти.¹⁴

4. **Matn ichidagi kontekstual bog'lanish**

- Izohda biror tushuncha yoki atama keltiriladi va unga gipermatn orqali izoh beriladi.

- Misol: "Raqamli savodxonlik (bu yerda [ta'rif](#)) bugungi kunda juda muhim."

Xulosa

Internet kommentariyalari zamonaviy nutqiy janr sifatida tilshunoslikda alohida ilmiy e'tiborni talab qilmoqda. Ular interfeys, interaktivlik, gipermatnlilik kabi media parametrlar orqali

foydalanuvchi tajribasini shakllantirib, kommunikativ muhitda faol ishtirok etadi. Bugungi kunda sharh nutqiy janrining mustaqilligi, uning gibrid shakllar bilan aloqasi va stilistik-lingvistik jihatlarini zamonaviy axborot platformalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu parametrlar sharh janrining murakkabligini, o'zgaruvchanligini va raqamli muhitga moslashuvchanligini ko'rsatadi. Shunday qilib, internet kommentariyalari nafaqat axborot almashish vositasi, balki ijtimoiy, madaniy va lingvistik jarayonlarning aks-sadosi sifatida ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, internet kommentariyalarning media parametrlari *multimedia*, *sinxronlik/asinxroniya* va *kommunikatorlar soni* elementlarini ham o'z ichiga oladi va bu haqida kelgusi tadqiqot ishlarimizda batafsil to'xtalishga harakat qilamiz. Internet sharhlarining yuqorida fikr yuritgan janr xususiyatlarining afzalliklarini alohida e'tiborga olish kerakki, gipermatnlilik orqali bir nechta mavzu jihatidan rang-barang manbalarga yo'l ochiladi, foydalanuvchilar havolalar (ssilkalar) orqali fikrlarini asoslashi natijasida tahlil va muhokama imkoniyati vujudga keladi. Interaktiv elementlar esa foydalanuvchi e'tiborini o'ziga jalb qila oladi. Xulosa qilib aytganda, internet sharhlari zamonaviy media janrining murakkab, ko'p qatlamli shaklidir. Ular vositasida foydalanuvchilar bir-biridan o'rganishi orqali axborot almashinuvi tezlashadi, jamiyatda faollik oshadi — odamlar o'z fikrini erkin bildiradi. Zero, ko'proq izoh, ko'proq muloqot demakdir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. L. R. Abdullina, A. V. Ageeva and E. A. Smirnova The Evolution of the 'Comment' Genre: Theoretical Aspect. World Applied Sciences Journal 29 (3): 354-bet, 2014. [https://www.idosi.org/wasi/wasi29\(3\)14/7.pdf](https://www.idosi.org/wasi/wasi29(3)14/7.pdf). (Murojaat sanasi: 12.02.2025).

2. Баршт К. А.О направлениях и пределах комментирования художественного текста. По поводу статьи К. Г. Исупова // Вопросы литературы. 2009. № 5. С. 279-303; Карасик В. И. Комментарий как жанр герменевтического дискурса // Язык, коммуникация и социальная среда. 2009. Вып. 7. С. 32-47; Моисеев М. В. Проблема типологии и точности комментария к переводу художественного текста // Вестник Омского государственного университета. 2014. № 3 (73). С. 132-135; Ушанова И. А. Комментарии читателей в новых медиа как форма Интернет-коммуникации // Язык и межкультурная коммуникация: материалы Второй Международной науч. практ. конф. (Великий Новгород, 19-20 мая 2011 г.): в 2 т. Т. 2. / отв. ред. О. А. Александрова, Е. Ф. Жукова. Великий Новгород: НовГУ им. Ярослава Мудрого, 2011. С. 105-109; Егорова М. А. Отклики и оценочные комментарии при компьютерно-опосредованной коммуникации // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. №1. С. 15-20; Иванова С. В., Зубарева В. М. Жанровые особенности коммента как интернет-текста // Вестник Башкирского университета. 2013. Т. 18. №4. С. 1147-1151; Митягина В. А. Интернет-комментарий как коммуникативное действие // Жанры и типы текста в научном и медийном дискурсе: межвуз. сб. науч. тр. Вып. 10. Орел: ОГИИК, ООО «Горизонт», 2012. С. 188-197.

3. Sinenko, T.V., 2008. The genre peculiarities of network debates. Bulletin of the Voronezh state university. Series: Philology. Journalism, 1: 214-222.

4. L. R. Abdullina, A. V. Ageeva and E. A. Smirnova. Ko'rsatilgan manba.

5. М. А. Егорова "Отклики и оценочные комментарии при компьютерно-опосредованной коммуникации". Вестник ВГУ. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. 2014. № 1. С.15-20.

6. Е.Н. Василенко Комментарий в жанровом пространстве интернет-дискурса. <https://libr.msu.by/bitstream/123456789/11093/1/2328n.pdf>. Murojaat sanasi: 11.03.2025.

7. Горошко, Е. И. Виртуальное жанроведение: устоявшееся и спорное / Е. И. Горошко, Е. А. Жигалина // Вопросы психолингвистики. - 2010. - № 2 (12). - С. 105.

8. Щипицина, Л. Ю. Классификация жанров компьютерно-опосредованной коммуникации по их функции / Л. Ю. Щипицина // Извест. Рос. гос. пед. ун-та имени А. И. Герцена. - 2009. - № 114. - С. 172.

9. Е. Н. Василенко. Yuqorida ko'rsatilgan manba. С. 23.

10. <https://youtube.com/watch?v=KJ2a2Up1wRc&lc=Ugyx7mBcXoxBckmEpZ4AaABAg&si=3ZgUEslLosHXFZG1>. Murojaat sanasi: 19.10.2025.

11. <https://youtube.com/watch?v=Ty9GfWfXqKA&lc=UgwDqZFPpwEKfbKWH094AaABAg&si=hLQRVvtETXTOhq3>. Murojaat sanasi: 19.10.2025.

12. <https://youtube.com/watch?v=ExfaMN911Gw&lc=UgzvUg1eP3TNtEX8IV4AaABAg&si=VXkGfg3ClcGRjAq>. Murojaat sanasi: 19.10.2025.

13. https://youtube.com/shorts/it9R7WrEBiY?lc=UgxJithA2_FtVHgI-HR4AaABAg&si=1nWtwTSS8y-5Pcf. Murojaat sanasi: 19.10.2025

14. <https://youtube.com/shorts/81VfLVQC6HI?lc=UgwyEQROI077LKgRHgZ4AaABAg.AOSgy-W0-eYAOSo3wy8NAP&si=zDtKImMv83cw0gr5>. Murojaat sanasi: 19.10.2025.

¹³ https://youtube.com/shorts/it9R7WrEBiY?lc=UgxJithA2_FtVHgI-HR4AaABAg&si=1nWtwTSS8y-5Pcf. Murojaat sanasi: 19.10.2025.

¹⁴ <https://youtube.com/shorts/81VfLVQC6HI?lc=UgwyEQROI077LKgRHgZ4AaABAg.AOSgy-W0-eYAOSo3wy8NAP&si=zDtKImMv83cw0gr5>. Murojaat sanasi: 19.10.2025.